

O‘SPIRINLIK YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING OTA-ONASI BILAN KECHADIGAN ZIDDIYATLI MULOQOTLARI

Choriyeva Mahliyo Narzullayevna

Buxoro viloyati Jondor tumani

11-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘spirinlik davrida yoshlar va ota-onalar o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatli muloqotlarning psixologik xususiyatlari, kelib chiqish sabablari hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. O‘spirinlik davrining o‘ziga xos jihatlari, mustaqillikka intilish, emotsional o‘zgarishlar va oilaviy munosabatlarning yoshlar ruhiyatiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, sog‘lom muloqotni shakllantirishda ota-onalar va pedagoglarning o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘spirinlik davri, ota-ona, ziddiyatli muloqot, oilaviy munosabatlar, psixologik rivojlanish, muloqot madaniyati, mustaqillik, emotsional holat, tarbiya, oila.

KIRISH

O‘spirinlik davri inson hayotidagi eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda yoshlarning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. O‘zini anglash, mustaqil fikrlash va shaxs sifatida shakllanish jarayonlari kuchayadi. Shu sababli o‘spirinlar ko‘pincha ota-onalar bilan turli masalalarda kelishmovchiliklarga duch keladilar. O‘spirinlik davrida yoshlarda mustaqillikka bo‘lgan ehtiyoj ortadi. Ular o‘z qarorlarini mustaqil qabul qilishni, shaxsiy fikrlarini erkin bildirishni va teng huquqli munosabatlarni istaydilar. Biroq ota-onalar tomonidan ortiqcha nazorat yoki qat’iy talablarning qo‘yilishi ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada o‘spirin va ota-ona o‘rtasidagi muloqotda tushunmovchiliklar paydo bo‘ladi.

Ziddiyatlarning yana bir sababi avlodlar o‘rtasidagi qarashlar farqidir. Ota-onalar hayotiy tajribalariga tayangan holda farzandlariga maslahat berishga harakat qiladilar. O‘spirinlar esa zamonaviy qarashlar va tengdoshlar ta’siri ostida ba’zan bu tavsiyalarni qabul qilishni istamasliklari mumkin. Bu holat muloqot jarayonida qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi.

O‘spirinlik davrida emotsional beqarorlik ham kuzatiladi. Yoshlar ba’zan o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda qiynaladilar, tez xafa bo‘lishlari yoki keskin munosabat bildirishlari mumkin. Ota-onalarning tanqidiy munosabati yoki qo‘pol muomalasi esa ziddiyatlarning yanada kuchayishiga olib keladi. Oiladagi sog‘lom psixologik muhit ziddiyatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining

fikrlarini hurmat qilishlari, ularni diqqat bilan tinglashlari va qaror qabul qilish jarayoniga jalb etishlari lozim. O‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlar o‘spirinning o‘zini qadrlangan shaxs sifatida his etishiga yordam beradi. Ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishda samarali muloqot ko‘nikmalaridan foydalanish muhimdir. Ota-onalar buyruq berish yoki tanbeh berish o‘rniga tushuntirish, maslahatlashish va hamkorlikka asoslangan yondashuvni qo‘llashlari tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘spirinlarni ham o‘z fikrlarini madaniyatli tarzda ifodalashga o‘rgatish zarur.

Maktab psixologi va pedagoglar ham oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadilar. Ular ota-onalar va o‘quvchilar bilan suhbatlar, treninglar va maslahatlar tashkil etish orqali ziddiyatlarni kamaytirishga ko‘maklashishlari mumkin.

Insonlar orasidagi munosabatlar bo‘yicha muammolar psixologik maslahatlar berish jarayonida ko‘p uchraydi. Bunda masalan men bo‘lajak psixolog bo‘lsam o‘z hayotimni ya‘ni ukamlarda tasvirlab berishim mumkin. Ular bilan ko‘proq yaxshi gaplashishni istasak ham ozgina noto‘g‘ri so‘zlashishlari orqali meni yoki onam, yaqin do‘stlarini xafa qilib qo‘yishi menga ushbu dolzarblikni olib chiqishga majbur qildi. Ya‘ni, bunda o‘spirin yoshdagi bolalarda muloqotga kirisha olmaslik yokida boshqa bir haqoratli so‘zlar bilan so‘zlashishlarni muammo qilib olsak bo‘ladi. Aytib o‘tilgan muammolarning ko‘p jihatliligi odamlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni murakkabligini ko‘rsatadi.

Hozirgi globallashuv davri bu yosh davrga kuchli ta‘sir etib qolmasdan, balki uning shaxslararo muloqot shakllariga ham o‘z ta‘siri o‘tkazmay qolmadi. Negaki, hozirgi akselatsiya jarayonining shiddat bilan o‘sishi ularning har tomonlama “hozirjavobligiga” olib keldi. Natijada katta yosh vakillari bilan bir – biriga to‘g‘ri kelmaydigan munosabat shakllari shakllanib bordi. Bu esa ilk o‘spirinlikka xos bo‘lgan shaxslararo muloqot shakllarini keltirib chiqardi. O‘spirinlarda qadriyatli ma‘noli muloqot dominantlik qiladi. Yigit va qizlarning kattalar va ota-onalar bilan muloqoti demokratik xarakter kasb eta boshlaydi. O‘spirinning kattalar bilan muloqotining mazmuni hayot mazmunini izlash, o‘zini bilish, hayotiy rejalar va ularni amalga oshirish yo‘llari, insonlar orasidagi shaxslararo munosabatlar, kasb egalari haqidagi muammolarni qamrab oladi. Kattalar bilan muloqot bir xil davom etmaydi, o‘zini qiziqtirgan muammoni hal qilgach, keyingi muammo bo‘yicha savollar tug‘ilguncha kamroq muloqot qilishi mumkin. Yigit va qizlar o‘ziga yaqin kattalar bilan muloqot qilishga kasb tanlash muammolariga duch kelganlarida hayotiy tajribalarini o‘rganish uchun ehtiyoj sezadilar. Bir-birini tushunish, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga asoslangan hamkorlik sharoitida muloqot samarali kechadi. O‘spirin uchun kattalar bilan ishonchli muloqotning mazmuni shundan iboratki, uning muammolarini tushunish, hamdardlik bildirish va uni hal qilish uchun yordamlashishdan iboratdir.

«Kim bilan do‘stlashishni xohlarding, o‘zingdan kattalar bilanmi, tengdoshlaring bilanmi, yoki o‘zingdan kichiklar bilanmi?» degan savolga ilk

o'spirinlarning ko'pchiligi (75—85%) tengdoshlarini tanlashgan, kattalarni (11—20%), hamda kichiklarni juda kam (1—4%) tanlashgan. Qizlar ham ko'pincha tengdoshlarini tanlashgan, lekin ko'pincha kattalarni ham tanlashgan (39-50%), o'zlaridan kichiklarni hech tanlashmagan (I.S.Kon va V.A.Losenkov tadqiqotlari natijalari). O'spirinlik davri ya'ni 8-10-sinflar, ya'ni, bu yoshdagi bolalarning muloqot psixologiyasi murakkabligini hisobga olib ular bilan yaxshi muomilada bo'lish hamda do'stlarini to'g'ri tanlashda ko'maklashishimiz kerak. O'spirinlar o'z qobiliyatlari, xarakteri va jamiyatdagi o'rnini anglashga harakat qiladilar. O'ziga baho berish, o'z qadr-qimmatini his qilish shakllanadi. Emotsional rivojlanish .

Ilk o'spirinlik davrida hissiyotlar juda kuchli va o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Ba'zan o'spirinlar tez xafa bo'lishi, hayajonlanishi yoki o'z his-tuyg'ularini chuqur his qilishi kuzatiladi. Bu davrda muhabbat, do'stlik va ishonch kabi tuyg'ular muhim ahamiyat kasb etadi. O'spirinlar uchun do'stlar va tengdoshlar fikri juda muhim bo'lib qoladi. Ular guruhda o'z o'rnini topishga, mustaqil qaror qabul qilishga intiladilar. Ota-ona bilan munosabatlar ham yangi bosqichga o'tadi: o'spirin ko'proq mustaqillik talab qiladi. Kasb tanlash rejalari. Ilk o'spirinlik davrida yoshlar kelajak kasbi, ta'limi va hayotiy maqsadlari haqida o'ylay boshlaydilar. Kasbga qiziqish paydo bo'ladi va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga intilish kuchayadi. Ilk o'spirinlik davrining eng muhim xususiyatlaridan biri o'zini anglashning rivojlanishi hisoblanadi. Bu davrda o'spirinlar o'z shaxsiy sifatlarini, qobiliyatlarini va imkoniyatlarini baholay boshlaydilar. Ular o'zlarini boshqa odamlar bilan solishtiradilar va o'z shaxsiyatini tushunishga intiladilar. Psixolog Erik Erikson bu davrni identifikatsiya bosqichi deb ataydi. Uning fikriga ko'ra, o'spirinlik davrida shaxs o'zining kimligini anglashga va jamiyatda o'z o'rnini aniqlashga harakat qiladi.

XULOSA

O'spirinlik davridagi yoshlarning ota-onasi bilan kechadigan ziddiyatli muloqotlari tabiiy psixologik jarayonlardan biri hisoblanadi. Biroq bu ziddiyatlar o'zaro hurmat, ishonch va samarali muloqot orqali bartaraf etilishi mumkin. Ota-onalarning farzandlarini tushunishga intilishi, ularning mustaqilligini qo'llab-quvvatlashi va sog'lom oilaviy muhit yaratishi o'spirinlarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
3. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
4. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
5. Ziyonet